O‘ZBEK TILIDAGI SHAXS TASVIRI SIFATLARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI

Jalilova Marjona Elyor qizi
Mustaqil tadqiqotchi
marjonajalilova2000@gmail.com

Annotatsiya. Ma’lumki, lingvistik tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi konuniyatlarini muayyan qiladi, o‘rganadi va modellashtiradi. Amaliy tilshunoslik esa ayni qonun qoidalar va modellarni ishlab chiqish uchun baza yaratish bilan, ya’ni muayyan leksik-semantik guruh vositalari tarjimasidagi muammolarni aniqlashtirish va ularni bartaraf etishga oid tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi. Ayni shu maqsadni ko‘zda tutgan holda yuqoridagi fasllarda shaxs tasviri sifatlari turli ma’nolarga tasniflandi, ingliz va o‘zbek tillaridagi shaxs tasviri sifatlarining semantik tarkibi hamda ma’no munosabatlari masalalariga oydinlik kiritildi.

Kalit so‘zlar: shaxs, sifat, fel, semantic, uslub, imlo, gramatik, orfografik, zamonlar, kishilik olmoshlari, kelishik qo‘shimchalar.

KIRISH

Badiiy tarjima jarayonini turli qurilishli tillarning struktur o‘ziga xosliklari, leksik sath vositalarining farqli ma’no tarkibi, umuman olganda olam milliy lisoniy tasvirini tashkil etuvchi elementlar murakkablashtiradi. Zero badiiy asar tarjimasida mutaxassis oldida asosiy vazifalardan biri yozuvchi bayon uslubi, asar tilini imkon qadar saqlab qolish deb belgilangan, shu bilan birga tarjima matnini o‘quvchi uchun tushunarli, yaqin bo‘lishi talab qilinadi.[1]

Ma’lumki, lingvistik tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi konuniyatlarini muayyan qiladi, o‘rganadi va modellashtiradi. Amaliy tilshunoslik esa ayni qonun qoidalar va modellarni ishlab chiqish uchun baza yaratish bilan, ya’ni muayyan leksik-semantik guruh vositalari tarjimasidagi muammolarni aniqlashtirish va ularni bartaraf etishga oid tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi. Ayni shu maqsadni ko‘zda tutgan holda yuqoridagi fasllarda shaxs tasviri sifatlari turli ma’nolarga tasniflandi, ingliz va

o‘zbek tillaridagi shaxs tasviri sifatlarining semantik tarkibi hamda ma’no munosabatlari masalalariga oydinlik kiritildi.[2]

Tarjima amaliyoti nuqtai nazaridan shaxs tasviri sifatlarini uch qutubga ajratish joiz. Birinchi guruhga ingliz va o‘zbek tillarida o‘zaro muqobiliga ega vositalar, ikkinchi guruhga muqobilsiz elementlar va nihoyat uchinchi turkumga bir tilda ma’lum bir ma’noni ifodalovchi so‘zning boshqa tilda qisman ma’nodosh ekvivalenti bo‘lgan leksemalar kiradi.[3]

Birinchi tur vositalar, ya’ni ikki tilda o‘z muqobiliga ega shaxs tasviiri ma’nolarining o‘zaro tarjimasi hech qayday muammolarga sabab bo‘lmasligi tabiiy. Zotan har ikki tilda ham mavjud bo‘lgan ma’no ifodachilari aynan bir xil lug‘aviy va ifoda ma’nolariga ega. Aksariyat hollarda ularning grammatik ko‘rsatkichlari umumlashmasi bo‘lmish vazifa semalari ham bir-biriga mos tushadi. Shaxs tasviri sifatlari sirasida tashqi ko‘rinishni tavsiflovchi vositalarni ayni shunday ingliz va o‘zbek tillarida o‘zaro muqobiliga ega elementlar xisoblanadi. Kishi tashqi ko‘rinishini ifodalovchi sifatlar hoh salbiy, hoh ijobiy kontekstual semaga ega bo‘lsada ularning tarjimasi qulay, muammolarga sabab bo‘lmaydi. Anglashilganidek, o‘zbek va inggliz tillaridagi tashqi ko‘rinish tasviri ma’nosiga ega lisoniy birliklar barcha semantik parametrlariga ko‘ra bir-biriga mutanosibdir. Bunga sabab esa ushbu elementlarning aniq tushunchalarni ifodalashidadir. Mavhum leksikaning qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, obyektiv hatti-harakat, holat, belgi yoki obyektlarni atovchchi ushbu so‘zlar o‘zaro nolisoniy omillar bilan bog‘langan. Ushbu so‘zlar ma’nosi leksik tizimdagi munosabatlar sababli, ya’ni boshqa leksik-semantik guruh vositalari bilan munosabatga kirishganda o‘zgarishga moyil bo‘ladi. Shuningdek, mavhum tushunchani ifodalovchi so‘zlar o‘z mikrotizimi doirasida ham ma’nodoshlik va zid ma’nolilik munosabatlariga kirishadi. Mavhum tushunchalarni tamsil etuvchi leksemalardan farqli o‘laroq tashqi ko‘rinish gipersemasining o‘zi aniq, ko‘zga yaqqol ko‘rinib turuvchi fenomenlarni o‘z ichiga oladi, ular barcha tillarda aynan bir xil ma’no qiymatiga ega. Ushbu vositalar tarjimasi mutaxassisdan horijiy til leksik tarkibini mukammal darajada bilishni talab etadi, ularni o‘girishda moslashtirish, kalkalash yoki shu kabi usullardan foydalanishga hojat yo‘q. Masalan: Tor ko‘chada, qo‘shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol

bobom o‘z o‘rtog‘i — uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq mo‘ysafid bilan nimalar to‘g‘risidadir ezmalanib so‘zlashadi. Bobom oriq, kichkina gavdasini devorga suyab, cho‘qqaygan: hassasini tizzalari orasiga qadagan. (Oybek, Bolalik) In the narrow streets of the old neighborhood, in front of the rickety door, my old grandfather chattered with his friend — an old man with a long beard, tall body, and deaf ear. (trans. Carolyn Wei); Qadoq qo‘llarining uchini berib xo‘shlasha-xo‘shlasha menga yetganda, uyam burilib ketdi. (SH.Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri) Then his wife also shook the hands of the guys with her laboring, callous hands. (trans. H.Allanazarova). Ayni shundek aniq ma’noga ega bo‘lgan shaxs-tasviri sifatlari sirasida shaxs hatti harakatini tasvirlovchi elementlarni ajratish mumkin. Ma’lumki, mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning uch asosiy xususiyati mavjud: mavhum tushunchaning ma’no tarkibi juda keng, deyarli chegarasizdir. Ularni ifodalovchi so‘zlar derivatsion vositalarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ushbu keng ko‘lamli derivatsion imkoniyatlar bir kishi leksikoni doirasida chegaralanmaydi. Aniq tushunchalarni ifodalovchi shaxs hatti-harakati tasviri sifatlarining semantik strukturasi tor, bir lug‘aviy va cheklangan ifoda semalarini o‘z ichiga oladi, ularning ma’no munosbatlari doirasi ham tor, sinonimlari yoki variantdoshlari sanoqli. Bunday ko‘rsatkichlarga ega, aniq bir ma’noni anglatuvchi so‘zlar barcha tillarda mavjud.[4]

Tarjima mutaxassisdan diqqat, sinchkovlik, iqtidor va yuksak mahorat talab etuvchi murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy tarjimaning boshqa adabiy jarayonlardan, jumladan, bevosita badiiy asar yaratishdan ko‘ra mashaqqatli va murakkab aspekti bor. Yaratish, mustaqil ijod etishdan farqli o‘laroq tarjimada ijodkor ikki yirik cheklovga ega. Bir tomondan tarjimon, yozilgan tayyor badiiy matn mazmuni, bayon uslubi va ifoda vositalari bilan chegaralanadi. Matn mazmunini o‘girishdagi cheklov esa tarjima amalga oshirilayotgan tilning struktur o‘ziga xosliklari va ifoda imkoniyatlari sabab yuzaga keladi. Yuqorida nisbatan aniq tushunchalarni ifodalovchi shaxs tasviri sifatlari, ya’ni kishi tashqi ko‘rinishi hamda uning hatti harakatini ifodalovchi sifatlar tarjimasi aniq va mukammal bo‘lishi uchun barcha sharoit va asoslar mavjudligi ta’kidlandi. Darhaqiqat, mazkur ma’nolarni ifodalovchi vositalar har ikki tilda ham ayni semantik xususiyatlar va ma’no munosabatlarini tashiydi. Biroq shaxs tasviri ma’nosi faqat shu sifatlar bilan cheklanmaydi

– kishi fe’l-atvori, kayfiyati, aqliy qobiliyati va ruhiy holatini tasvirlovchi vositalar ham shaxs tasviri sifatlari turkumiga kiradi. Ushbu vositalar nisbatan mavhum tushunchalarni ifodalaganligi bois ularning tarjimasi noaniqlikka sabab bo‘lishi mumkin. Har qanday mavhum konseptni anglatuvchi leksemaga xos bo‘lgan xususiyat ushbu sifatlarga ham oid, ularning ma’no ko‘lami aniq chegaralaga ega emas, lug‘aviy ma’nolari matn kontekstiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Bu esa tarjimada ayni ma’noni to‘liq anglatuvchi ekvivalent muqobil tanlash jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, o‘zbek tilida quyidagi so‘zlar shaxs tasviri ma’nosiga ega, ularning ma’nolari farqli, umumiy jihati esa ma’noning mavhum tushunchani ifodalashida namoyon bo‘ladi.[5]

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham shaxs tasviri sifatlaridan fe’l-atvor, kayfiyat, ijtimoiy o‘rin, munosabat kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar mavhumdir. Ularning ma’no ko‘lami keng, polisemantik xususiyatlarni namoyon etadi. Bunday chigalliklar esa tarjima jarayonida noaniqlarga sabab bo‘lishi muqarrar. Mavhum belgi, xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar tarjimasida mutaxassis faqat kontekstual ma’noga, muayyan nutqiy munosabatlarga e’tibor qaratmog‘i lozim. Tarjima matnida sifatning to‘liq lug‘aviy ma’nosini ifodalash shart emas, muayyan kontekstual ma’noni bildiruvchi ekvivalent topish yetarlidir. Albatta, tanlangan sifat asliyatdagi birlik bilan uslubiy va davriy mutanosiblikka ega bo‘lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фаткуллин Ф. Перевод реалий и проблема воссоздания национального

2. своеобразия подлинника // Филологический сборник. - Алма-Ата, 1973. - Вып. XП. - с. 270-278.

3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 112.

4. Апресян Ю. Д. Избранные труды в 2х т: Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – С. 357

5. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 112.